

## GRAMMATIK KATEGORIYALARNING IJTIMOYIY VARIATSIYALARI VA ULARNING NUTQDA NAMOYON BO'LISHI

Ro'zimatova Dilnoza,

*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi*  
[dilnozarozimatova@mail.com](mailto:dilnozarozimatova@mail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925272>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada grammatik kategoriyalarda ijtimoiy variatsiyalarning ifodalanishi haqida so'z boradi. o'zbek tilida olmoshlar, fe'llar yordamida namoyon bo'lishi keltirilgan misollar yordamida dalillangan.

**Kalit so'zlar:** grammatik variatsiyalar, ijtimoiy variatsiyalar, buyruq-istak mayli, olmoshlar, shart mayli shakllari, shaxs-son qo'shimchalari.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается выражение социальных вариаций в грамматических категориях. В узбекском языке это проявляется с помощью местоимений и глаголов, что доказано примерами.

**Ключевые слова:** Грамматические вариации, социальные вариации, повелительное наклонение, местоимения, формы условного наклонения, аффиксы лица и числа.

**Annotation.** This article discusses the expression of social variations in grammatical categories. The manifestation of pronouns and verbs in the Uzbek language is illustrated with examples.

**Keywords:** Grammatical variations, social variations, imperative mood, pronouns, conditional mood forms, person-number suffixes.

**Kirish.** So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi fikr almashinuv va uni idrok qilish jarayoni nutqiy faoliyat hisoblanadi. Suhbat jarayonida so'zlovchi fikrini tinglovchi haqidagi ba'zi ma'lumotlarni ko'zda tutgan holda yetkazishi lozim. S.Mo'minov muloqot jarayoniga ta'sir etuvchi birliklarni tashqi va ichki ta'sir birliklari sifatida tasniflar ekan, suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy belgilarini ichki ta'sir birliklari sifatida aytib o'tadi [5:16]. Demak, shaxslarning ijtimoiy maqomi suhbatning qanday kechishiga ta'sir etuvchi omil sifatida baholanadi. Insonning maqomi ko'pincha shaxsning jamiyatdagi nufuzi va kuchini belgilaydi, bu uning yuqori yoki quyi maqomdagi shaxslar bilan muloqotida ko'zga tashlanadi. Shaxslarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini ko'rsatib beradigan jihatlardan biri ularning moddiy imkoniyatlari hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida ijtimoiy maqom semantik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik jihatdan monografik planda alohida dissertatsiya obyekt sifatida o'rganilmagan, manbalarda u yoki bu ta'riflarga duch kelish mumkin. Jumladan, N.Mahmudov o'z maqolalarida nutqning jo'yali bo'lishi uchun so'zlovchi tinglovchining yoshi, saviyasi va ijtimoiy maqomini ham inobatga olishi zarurligini, shuningdek, suhbat jarayonida lisoniy shakllarning mavjud variantlaridan foydalanish nutq vaziyati hamda nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, ularda barqarorlashgan lisoniy odat, axloq va boshqa ekstralingvistik omillarga chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Sh.Iskandarova til va nutqning sotsial variativligi haqida to'xtalib, u sotsiolingvistikaning

markaziy muammolaridan biri ekanligini aytadi. U o'zaro bog'langan ikki o'lcham – ijtimoiy guruhga asoslangan (stratifikatsion) va ijtimoiy vaziyatga xoslangan (situativ) variativlik bilan xarakterlanishini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ijtimoiy maqom shaxsning jamiyatdagi doimiy o'rni bilan belgilansa, uning nutqiy vaziyatga qarab o'zgaradigan ko'rinishlari ijtimoiy rollar hisoblanadi. Sh.Iskandarova o'zbek nutq odatining muloqot shakllarini tadqiq qilish jarayonida nutqiy odatning sotsiolingvistik yo'nalishiga ham e'tibor qaratdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi grammatik kategoriyalarning grammatik variativligidan tashqari ijtimoiy variantlari ham mavjudligi, bular ko'proq shaxs-son shakllari, kishilik olmoshlari, egalik qo'shimchalasi orqali ifodalanishi keltirilgan misollar yordamida izohlangan. Yuqoridagi mavzuni yoritishda tavsifiy, semantik, sotsiolingvistik, tasniflash, diskursiv tahlil, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Professor N.Mahmudov o'zbek tilida lisoniy, grammatik variatsiyalardan tashqari ijtimoiy variatsiyalar ham mavjudligini, ushbu variatsiyalar suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomiga mos qo'llanishini ta'kidlagan edi [4:10]. Ijtimoiy variatsiyalar sifatida kishilik olmoshlarining, fe'llardagi shaxs-son shakllarining tinglovchining ijtimoiy maqomiga mos holda qo'llanishi nazarda tutiladi.

Masalan, nutq jarayonida *sen* olmoshi orqali so'zlovchi tinglovchiga murojaat qilish bilan birga, suhbatdoshining yosh jihatdan kichik, teng, o'ziga yaqin ekanligi, shuningdek, uning ijtimoiy maqomi pastligiga ham ishora qilish, unga nisbatan hurmatsizlik ma'nolarini ifodalash maqsadida ham qo'llaniladi:

– *Gulnor, sen biznikiga chiq, oyimga ayt, bir patnis yasab bersin. Pista-bodomdan ko'proq ol. Ha, kim biladi, sanda oyimning yumushi bordir, bir chiqishing kerak, – Nuri xo'rsindi, sochlari, g'ijim ro'molini tuzatdi.*

*To esini tanigandan boshlab Nurining buyruqlariga so'zsiz bo'ysunib kelgan Gulnor hech nima o'ylamasdan o'rnidan turdi.*

– *Jonim bilan, boyadan beri aytsangiz bo'lmasmidi? – Gulnor paranjisini nari-beri boshiga ildi. (Oybek, "Qutlug' qon")*

Suhbatdoshlar deyarli tengdosh, ammo so'zlovchi o'z maqomidan past sherigini sizlashni ma'qul ko'rmaydi. Asarda tasvirlangan davrda insonlar o'rtasidagi moddiy jihatdan farq juda muhim hisoblangan. Parchadagi *so'zsiz bo'ysunmoq* ifodasi, qahramonning hattoki gapirishga ham botinolmasligini ifodalagan, bu ifodaga boshqa asarlarda ham ko'p duch kelishimiz mumkin. Bejiz V.I.Karasik "Boylik, agar u ma'lum bir turmush tarzi bilan bog'liq bo'lsa, hurmatni talab qiladi" [2:14] degan fikrni bildirmagan.

Muloqotda so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy maqomini ko'rsatadigan vositalar, asosan, leksik vositalar hisoblanib, fonetik va grammatik vositalar shaxs ijtimoiy maqomini oshirish yoki ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Shaxs-sonning II shaxs birlik

shaklini qo'llash suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomlari teng emasligidan dalolatdir. Quyidagi misolda ijtimoiy maqom so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy omil vazifasini bajarmoqda.

*Eshik ochildi, Salimboyvachcha go'yo bu uyga kirgali hazar qilganday, boshini tiqdi. – Yo 'lchiboy, shu yerdamisan?*

*– Assalom, – Yo 'lchi o'rnidan turdi, – to'yda ko'rinmadingiz, Salim aka? (Oybek. "Qutlug' qon")*

Asardan ma'lumki, suhbatdoshlar qarindosh bo'lib, yosh jihatdan ham deyarli teng. Asarda Salimboyvachchaning "yoshi 25 dan oshmagan" deb ta'riflangan bo'lsa, Yo'lchining yoshi ham shunga yaqin. Lekin ularning ijtimoiy maqomi orasida katta farq bor. Salimboyvachcha "Toshkentning to'rt dahasi biladi"gan Mirzakarimboyning o'g'li, Yo'lchi esa ularning qaroli. Shuning uchun ham sizlashga majbur.

Yuqoridagi kabi muomala-munosabatlar hayotda ko'p uchraydigan holat, ammo boy-kambag'al, boy-xizmatkor munosabatlarida ham madaniyat bilan muomala qilish, xizmatkorini kamsitmaslik, umuman, suhbatdoshiga, avvalo, inson deb qarash ma'naviyatli insonning fazilatlaridan biridir.

*Otabek mehmonlarni tanchaga o'tquzib, fotihadan so'ng Hasanalidan so'radi: – Tuzukmisiz, ota?*

*– Xudoga shukr, – dedi Hasanali.*

*– Ba'zi yumushlarni buyursam...*

*– Buyuringiz, o'g'lim.*

*– Rahmat, ota, bo'lmasa, bizga choy qaynatib bersangiz-chi.*

*– Xo'b, begim.*

*Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashgandan keyin so'radi: – Bu kishi kimngiz bo'ladir, bek aka!*

*Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:*

*– Qulimiz.*

*Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi. – Qulingiz?*

*– Shundog'. (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar")*

Yuqoridagi kabi munosabatlar shaxsning tarbiyasiga, oiladagi munosabatlarga ham bog'liq. Asar qahramonining qo'l ostidagi kishisiga buyruqni to'g'ridan to'g'ri berolmagani uning "buyursam" so'zini qo'llashida, aniqrog'i, fe'ldagi -sa shaklida aks etgan, xo'jayin o'z xizmatkoriga buyruq mayli o'rniga shart maylini qo'llashi bilan buyruq o'rnini iltimos egallagan. Shart mayli qo'shimchasi nutqda ishlatilishga ko'ra shart ma'nosidan tashqari, taxmin, chama hamda yuqoridagi parchadan ma'lum bo'ladiki, iltimos ma'nosini ham bildiradi. Bundan tashqari, qulimiz so'zidagi I shaxs ko'plik egalik qo'shimchasini qo'llash bilan unga bo'lgan hurmatini ham namoyon etadi.

Sinfiylik mavjud bo'lgan jamiyatda insonning yuqori darajadagi moddiy ahvoli, odatda, uning shu jamiyat a'zosi sifatidagi obro'sini belgilab bergan hamda o'zidan quyi turuvchi odamlar ustidan hukmronlik qilish istagini kuchaytirgan. Ular ustidan hukmronlikni qo'lga olish esa uning past mavqeli odamlar bilan muloqot qilish uslubiga ham ta'sir ko'rsatgan. Quyi maqomdagi kishilar bilan muloqotda o'zini yuqori sanash va baland mavqeli shaxslar bilan munosabatda o'zini ochiqchasiga kamsitish, ularga qullarcha itoatkorlik va xushomadgo'ylikni nutqida ifodalash ayrim shaxslarga xos xususiyat hisoblanadi.

*...Dasturxon yig'ishtirildi, namozgar yaqinlashganidan, uchovlari tahorat qilgani turishdi. Namoz shu yerda – mehmonxonada o'qildi, Abdishukur imom bo'ldi. Keyin katta laganda palov keltirildi. Gangir-gungur suhbat bilan palovni yeb, Abdishukur ketishga ruxsat so'radi. U dahlizdan kalishini kiyar ekan, Mirzakarimboy qichqirdi: – Mulla Abdishukur, ertaga ojizamizga to'y keladi, **marhamat qiling, durustmi?..**"(Oybek. "Qutlug' qon")*

Fe'ning ayrim shakllari suhbat jarayonida shaxsning ijtimoiy maqomini ifodalashda ma'lum darajada qatnashadi. Jumladan, so'zlovchi shaxs-son qo'shimchasining II shaxs birlik shaklini ijtimoiy maqomi o'zidan past bo'lgan kishiga salbiy munosabatini ifodalash maqsadida qo'llashi mumkin. So'zlovchining lavozimi yuqori bo'lganda uning qo'l ostidagilariga bo'lgan munosabati leksik, fonetik vositalar bilan birga, shaxs-sonning II shaxs shakli qo'llanadi.

– *Qani, **gapir** bo'lmasa, nega o'tirding! Maslahatingni eshitaylik!..* – dedi. (O.Yoqubov. "Diyonat")

O'zbek tilida buyruq mayli I shaxsda istashni bildirsa, II, III shaxslarda, asosan, buyurish uchun qo'llaniladi. Buyurish imkoniyati maqomi yuqori shaxs tomonidan o'zidan quyi maqomdagi shaxsga nisbatan shunday maqomni sezdiradigan til birliklarni tanlashga imkon beradi va, albatta, bunday vakolatga nutqiy vaziyatdagi rolikdan, maqomidan kelib chiqqan holda ega bo'ladi. Yuqorida keltirilgan parchada so'zlovchi tinglovchidan yuqori maqomga ega ekanligi buyruq maylidagi *gapir* fe'lidan, ushbu gapga mos ohangdan (! belgisi keltirilgan), tinglovchini senlab murojaat qilishidan, tinglovchini ayni jarayonda mensimayotganligi uning kinoyali tarzda qo'llangan "*Maslahatingni eshitaylik!..*" gapida keltirilgan fe'ning I shaxs ko'plikdagi shaklidan anglashilib turibdi.

Ba'zan I shaxs ko'plik shakli kamtarlik, biror-bir ishni bajarganlikda o'zini ta'kidlamaslik ma'nolaridan tashqari o'zini tinglovchidan baland tutish, o'tmishda bajargan ba'zi ishlarini tinglovchining yodiga solish orqali o'zini undan yuqori maqomda ekanligini eslatish maqsadida ham qo'llaniladi.

– *Balli. Men ham oz-moz odam taniyman. Maktabning ko'pini **ko'rdik**, uka.* (M.M.Do'st. "Galatepaga qaytish").

Ushbu parchada fe'ning shaxs-son shakli so'zlovchining salbiy munosabatini oshkor ifodalash uchun qo'llangan. Bu yerda tinglovchining ijtimoiy mavqeyi past

bo'lganidan so'zlovchi o'zini baland olib gapiradi. Bu bilan tinglovchiga o'zining ko'p odamlarni tanishini, undan ko'proq malakaga ega ekanligini pisanda qiladi.

Shuningdek, III shaxs ko'plik shaklini ifodalovchi *-lar, -sinlar* singari shakllar ham so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida ijtimoiy maqomida farq mavjud bo'lgan holatlarda ham uchraydi va hurmat ma'nosini ifodalaydi.

– *Ana, – dedi mingboshi ot ustida bir sakrab tushib. Hokim to'ra keldilar!*  
(Cho'lpon. "Kecha va kunduz")

Yuqoridagi parchada so'zlovchining o'zga shaxsga hurmati *-dilar* shakli orqali ifodalanmoqda, chunki o'zga shaxsning ijtimoiy maqomi yuqori. Uning hissiy munosabati fonetik vosita, ya'ni ohang orqali, yozuvda esa undov belgisi bilan ifoda etilgan. Bu kabi holatlar so'zlovchining maqomi o'zga shaxsning maqomi bilan teng bo'lgan holatlarda ham kuzatiladi.

Ba'zan ushbu shakl suhbat jarayonida qatnashmagan III shaxsning ijtimoiy maqomini ifodalab kelishi "*Rais salom deb yubordilar*" singari gaplarda ham kuzatiladi. O'zbek tilida fe'llardagi shaxs-son va hurmat kategoriyasini tadqiq qilgan olim G'.Zikrillayevning ta'kidlashicha, "...hurmat kategoriyasining qo'llanishdagi xususiyat shaxs, son kategoriyasidan farq qiladi. Bu kategoriya formalarining qo'llanishi ijtimoiy omil (sotsial faktor) bilan belgilanadi. Ijtimoiy omil deganda, eng avvalo, nutq akti a'zolarining maqomi, ya'ni ijtimoiy va ijtimoiy-demografik turg'un belgilari hamda ijtimoiy roli nazarda tutiladi. ...hurmat kategoriyasi boshqa predikativ kategoriyalardan farqli o'laroq, sotsiolingvistik kategoriyadir. Hurmat kategoriyasi so'zlovchining tinglovchi va o'zga shaxsga ijobiy munosabatini turli darajada ifodalaydigan va qo'llanishi ijtimoiy omilga bog'liq bo'lgan formalar sistemasidir" [8:23].

– *Qaysi xizmatlari uchun bunday huquqqa ega bo'ldilar, rais? – dedi. – Paxta planini bajardilarmi bugun?*

– *Yo'q...* (O.Yoqubov. "Diyonat")

O'zbek tilida *-lar* qo'shimchasi tengdosh yoki so'zlovchidan maqomi past bo'lgan tinglovchiga nisbatan qo'llanganda kinoya ma'nosini ham bildiradi. Yuqoridagi gapda tinglovchining quyi maqomda ekanligi so'zlovchi tomonidan *-lar* qo'shimchasining qo'llanilishida, shuningdek, ushbu qo'shimchaning kinoya mazmunini anglatayotganligi matnda keltirilgan boshqa so'zlardan anglashilib turibdi.

Lekin ayrim holatlarda nutqiy me'yorning buzilishi ko'zga tashlanadi. Bunday holatni nafaqat nutqiy odat birliklarini noo'rin tanlashda, muloqot xulqida, balki uni muayyan nutqiy sharoit, kommunikantlarning ruhiy holati bilan bog'liq jarayonlarda ham ko'rish mumkin:

*Olimjon cho'kkalab o'tirgancha bir zum Zakunchiga hayratlanib qarab qoldi. O'sha zahoti alam bilan chinqirdi:*

– *Qopimni nima qilding?! – dedi yerga mushtlab. – Nima qilding?! – Dadamga nima deyman?*

*Bolaning sensirashi alam qilib ketdi, shekilli, Zakunchining ko‘zida dahshatli o‘t chaqnadi.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”)

Bu yerda so‘zlovchining o‘z ruhiy holatidan kelib chiqib, nutqiy odatga xos me‘yorni buzishi kuzatiladi. O‘zbeklarda, odatda, kattalarga hurmat muloqotda muhim o‘rin tutadi, lekin katta yoshli rahbar qahramonning xatti-harakati so‘zlovchining nutqiy odat me‘yorlarini buzishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu holatda nutqiy odatning regulativ vazifasi amalga oshmagan, chunki o‘zbek nutq madaniyatida kichik yoshdagilar tomonidan kattalarni senlashi odatiy hol hisoblanmaydi. Turli yoshdagilar muloqotida kichik yoshdagilarning katta yoshdagi hamsuhbatini “sen”lashi nutqiy odat me‘yorini buzadi. Chunki o‘zbek tilida “sen-siz” shakllari nutqiy odat uchun xos ahamiyatga ega bo‘lib, ular kommunikantlarning yosh belgilarini, sharoitlarining rasmiy-norasmiylikini, munosabatlarning xilma-xil xarakterini ochishga xizmat qiladi [1:70].

**Xulosa.** Muloqot jarayonida so‘zlash orqali shaxs jamiyatning boshqa a‘zolaridan farqli ekanligini anglash mumkin. Chunki har qanday shaxs o‘z maqomi va ayni damda bajarayotgan ijtimoiy roldan kelib chiqib so‘zlaydi. Shaxs ijtimoiy maqomi doirasida qanday rolni bajarmasin, ushbu rol uchun belgilangan nutqiy etiket qoidalariga amal qilishi kerak. Rahbar-bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi muloqotda rasmiy munosabatlarda, ya‘ni ish jarayoni bilan bog‘liq vaziyatlarda ijtimoiy masofa saqlanadi va rahbar o‘z maqomidan kelib chiqqan holda bo‘ysunuvchisi bilan muomala qiladi. Ushbu holatda uning rahbar ekanligi nutqidagi ohangdan, ayrim fe‘l, fe‘llarning buyruq mayli shakllaridan, kommunikantlarning nutqiy odob qoidalariga qay darajada rioya qilishidan anglashilib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одафининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 70.
2. Карасик В.И. Язык и социальный статус. – М.: Институт языкознания РАН, Волгоградский педагогический институт, 1991. – С. 14.
3. Махмудов Н. Нутқ маданияти ва бошқа фанлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 1. – Б. 10.
4. Махмудов Н. Ўзбек тили социолингвистикасининг долзарб муаммолари. Ўзбек тилшунослигини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари / Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. –Б. 3-15 б.
5. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона, 2021. – Б.16.
6. Одилов Ё. Тилдаги ўзгаришларда ижтимоий омилларнинг ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2024. – №2. – Б. 12.
7. Odilov Y. va b. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 335 b.
8. Зикриллаев Ф. Фейлнинг шахс, сон ва хурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.